Oqoltin tuman axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati



Özbekiston xalq şoiri Töra Sulaymon hayoti va ijodiga bağişlangan “Xalq qalbidan joy olgan şoir ” mavzusida bibliografik qöllanma

Oqoltin - 2026 y

S 94

“Xalq qalbidan joy olgan şoir” – Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan tayyorlangan : bibliografik qöllanma / tuzuvçi : N. Öljayeva,Ç.Rahimova – Oqoltin tuman Axborot – kutubxona markazi , 2026.- 20 b.

Töra Sulaymon 1934 yil 15 fevral kuni Baxmal tumani “Aldaşmon” qişloğida tuğulgan. Özbekiston xalq şoiri unvoni bilan taqdirlangan. ToşDUning özbek filologiyasi fakultetini tugatgan. “Guliston”, “Sirdaryo haqiqati” gazetalarida xodim, Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasining Sirdaryo viloyati bölimida mas’ul kotib, adabiy maslahatçi bölib işlagan. Ijodi 50-yillardan boşlangan. Ilk şe’rlar töplami –“Istar köngil”, “Qorasoç” dostoni

taniqli ijodkorlar, tanqidçilar tomonidan yaxşi kutib olingan. “Men qayga borar bölsam”, “Jahongaşta”, “Hamqişloqlarim”, “Intizor”, “Sirdaryo qöşiqlari”, “Iltijo”, “Alhazar”, “Töyboşi”, “Sizni eslayman”, “Qoraközginam”, “Gulşan”, “Sarvinoz”, “Xarsang”, “Jahonnoma”, “Gul bir yon, çaman bir yon”, “Yovqoçdi”, “Sayhon” , “Mamlakatning tayanç nuqtasi” kitoblari naşr etilgan. Köplab şe’rlari qöşiq qilingan. Töra Sulaymon xilma-xil janrlarda qalam tebratadi.

Şoirning sof lirik şe’rlari, qasida va faxriyalari, manzumalaridan taşqari, xalq yölida bitilgan, öz davrining dolzarb masalalariga bağişlangan, voqelikni qadimgi baxşilar nazari bilan körib, öxşatma yoki nazira şaklida yozilgan asarlari ham öziga xos xalqçilligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Ergaş Jumanbulbul el kezadi” turkumidagi baxşiyona şe’r va dostonlari özbekning milliy ğururini tiklaşga munosib hissa qöşgan asarlar sirasiga kiradi. Töra Sulaymon asarlari faqat ifoda tarzi yoki ohangi bilangina emas, tasvirdagi samimiyat, öxşatişlarning öziga xosligi nuqtai nazaridan ham xalqçil. Uning ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bağişlangan publitsistik maqolalari ham bor “Mamlakatning tayanç nuqtasi”, maqolalar töplami naşr etildi. Şe’ri xalq qöşiğiga aylangan şoirning umri uzun böladi. Uning umri özbekman degan millat dunyoda yaşagani qadar yetadi. Aslida mana şu xalq qöşiğiga aylangan şe’rlar tufayli özbekning umri ham dunyo turgunça va qora çodirda eng sönggi yulduz sönişi qadar davom etadi.

Taniqli adabiyotşunos olim Qozoqboy Yöldoşning kitob uçun maxsus yozilgan “Ikkinçi umr manzaralari” maqolasi Töra Sulaymondek betakror şoirning ijod olamini teran va samimiy oçib berganini alohida ta’kidlab ötiş lozim. Olim mazkur maqolada töğri qayd etganidek, Töra Sulaymon - bugungi odam hayoti va olam hodisayu holatlarini keçaning nazari bilan körib, şuurga tez yetib borib, unda mustahkam örnaşadigan azaliy usulda ifodalay olgani bilan ertangi kunga yovuq turadigan ijodkor. Zero, şoir ijodining yitmas qadimiy qadriyatlardan suvlangan tomirlari öta çuqur ketgan. Töra Sulaymon asarlarida keçaning bağrida dunyoga kelgan bugun ertangi kunni nazorat qiladi. Şu sabab, ularda millatning uzilmas umr zanjiri, yitmas ezgu qadriyatlari aks etadi.

UMR ÖTMOQDADIR DARYO MISOLI

Esiz, bolalikni qoldirib ortda,
Umr ötmoqdadir daryo misoli.
Qoldirib-qoldirmay iz bu hayotda,
Umr ötmoqdadir daryo misoli.

Oppoq tongni ulab tiyrai şomga,
Birda şak keltirib sirli olamga,




Goho ta’zim qilib badkor, badnomga,
Umr ötmoqdadir, umr ötmoqda.

Qay kezlar uşalmay orzu-armonlar,
Birda ğolib kelib tulkisimonlar,
Birda boy berilib bebaho onlar,
Umr ötmoqdadir, umr ötmoqda.


Töra Sulaymon asarlar

Töra Sulaymon, tanlangan asarlar



Janr/bÖlim: Şe’rlar, nazm, Biografiya, Memuarlar, esse, Qissalar, dostonlar, Badiiy adabiyot
Tuzuvçi : Azizbek Anvar
Muallif: Töra Sulaymon
Naşr yili: 2020
Tili: Özbek (kir)
Betlar: 624
Naşriyot: Şarq
ISBN raqami: 978-9943-5992-8-4
Uşbu kitobdan Özbekiston xalq şoiri Töra Sulaymonning sara şe’rlari va dostonlari, publisistik maqolalari, xotiralar, esselar va oçerklari örin olgan.

Töra Sulaymon



Janr/bölim: Şe`rlar, nazm
Tuzuvçi : Ikrom Iskandar
Muallif: Töra Sulaymon
Naşr yili: 2020
Tili: Özbek (lot)
Betlar: 128
Naşriyot: Akademnaşr
ISBN raqami: 978-9943-6361-2-5

Özbekiston xalq şoiri Töra Sulaymon zamonaviy milliy adabiyotimizda özining munosib örniga, öz ovoziga ega bölgan atoqli ijodkorlarimizdandir. Şoirning xalqona donişmandlik ruhi bilan yöğrilgan badiiy barkamol asarlari, turli yillarda naşr etilgan “Istar köngil”, “Qorasoç”, “Hamqişloqlarim”, “Jahonnoma”, “Men qayga borar bölsam”, “Intizor”, “Sizni eslayman”, “Sensiz yolğiz, ğarib böldim...” singari yigirmadan ortiq kitoblari millionlab adabiyot ixlosmandlarining köngil mulkidan joy oigan. Önlab şe’rlari qöişqqa aylanib, xalqimiz olqişiga sazovor bölgan. Işonamizki, ardoqli şoirimiz ijodidan saralangan uşbu töplam kitobxonlarimizga munosib tuhfa böladi.

MEN BILGAN VA BILMAGAN T ÖRA SULAYMON

Xurşid Davron

Töra Sulaymon bilan yuzma-yuz ilk kitoblarim çiqqan 80-yillarda tanişganman. Şoir kunlardan-bir kun men işlaydigan “Yoş gvardiya” naşriyotiga kelganida, ataylab meni izlab topgan, “Ha,Samarqandday şahri azimdan ham şoir çiqar ekan-ku!” deya meni bağriga bosgan edi. Öşa-öşa Töra aka Toşkentga kelganida meni suriştiradigan böldi, goh “Mavlono Samarqandiy” deb, “Sohibqiron nabirasi” kitobim naşr etilgandan keyin “Bobomning nabirasi” deb alqaydigan böldi. Men bölsam özim bilan-özim ovora, yonimdagi ulkan çinorni, bepoyon daştni, yuksak oq qorni bilib-bilmay yuravergan ekanman. Töra aka olamdan ötgaç, uning menga bölgan mehri farzandlariga ötdi. Oğa şoirdan qolgan ana şu ulkan mehr oldida qarzdorman. “Sensiz yolğiz, ğarib böldim...” kitobining har misrasini, ayniqsa, “Ergaş Jumanbulbul öğli el kezadi” turkumidagi har bir naqlni öqiganimda bu qarzning ortib borayotganini sezdim. Töra akadan oldin menga uning mana bu şe’ri yetib kelgan, yuragimga öçmas bölib quyilgan edi:

Şamol şamolni tebratar.
Şamol bulutni tebratar.
Bulut yomğirni tebratar.

Yomğir maysani tebratar.
Maysa biyani tebratar.
Biya qimizni tebratar.

Qimiz yigitni tebratar.
Yigit suluvni tebratar.
Suluv beşikni tebratar.

Beşik bolani tebratar.
Bola dunyoni tebratar.

Tavallo

Bu yil 94 yoşni qoralayotgan onam - Mukarrama usta Nurmat polvon qizlarining sharofati bilan bitilgan mashqim

Nelardandur köngil bölib ğaş,
Ham egilib bu egilmas boş,
Közlarimda qalqib tursa yoş,
Bu holimga berolmay bardoş
Muştipar bir Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.
Qaytar bölsam quruq qöl ovdan,
Qora qozon qolsa qaynovdan,
Ham ayrilib ölja, ulovdan,
Qarzga botar bölsam birovdan
Taskin berib Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.
Birda haqdin, birda nohaqdin,

Jabr körsam bir betavfiqdin.
Ortda tursam qalbi quroqdin,
Qadrim harob bölsa tuproqdin.
Ohlar urib Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.
Oğa-ini örtasida gap...
Alhol, kelib çiqmiş ixtilof:
Biri izzat, biri mulk talab.
— Bu oq sutim, mehrimga xilof, —
Deya şörlik Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.
Sinalmoqning gali kelganda,
Nohaq mağlub bölsam maydonda,
Nomim qolmas bölsa jahonda,
Kim döst-dushman bilinar onda
Ahvolimga Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.
Ğanim bir yon, men bir yon bölsam,
U ustivor, men uryon bölsam,
Bu ham kamday nogiron bölsam —
Oğoç otta yonma-yon bölsam
Oy tutilib, Onam yiğlaydir,
Qolganlari yolğon yiğlaydir.

Bölsam gumroh, bölsa gunohim,
Vujudimga solmasdin vahm,
Qabul aylab tavallo-ohim,
Dariğ tutmay mehring, ilohim,
Yiğlatmagil muşfiq Onamni,
Volidai Muhtaramamni.

Topolmasman

Izlay-izlay horib böldim, sensiz yolğiz, ğarib bo‘ldim,
Endi bosgan izlaringni tört tomondin topolmasman.
Toliqib ham tolib bo‘ldim, qirqqa kirmay qarib böldim,
Layli nahor seni izlab er-osmon-din topolmasman.
Ajab taqdir, ajab qismat bu boşda borga öxşaydir,
Oydin böla kelgan yölim uzilgan torga öxşaydir,
Sensiz qoşim qaboğimda qurilgan dorga öxşaydir,
Seningdek bir gulandomni Guliston-din topolmasman.
Bahor ötib yoz ham keldi, hamon sendin xabar yöqdir.
Besoxib boğ-roğlarimda qumri, sa’va, samar yöqdir.
Gar xayolot daryosiga ğarq bölsam bir kanor yöqdir,
Nada sahro, nada sayhon, Köhistondin topolmasman.
Hali bargrez kuz oldinda, ne şöriş, ne iş oldinda,
Hech kim imdod bera bilmas qaxri qattiq qiş oldinda.
Qarta-qarta qon örnida közdin oqar yoş oldinda,

Hargiz seni izlab Höton, Chin-Mochindin topolmasman.
Xazon fasli etib kelmay judolik bu boşga tuşmiş.
Yig‘lamoqdin özga çoram yöqdir öğu oşga tuşmiş,
Musibat bir boşga ermas er-kök, toğu toşga tuşmiş,
Endi sendek dilkuşoni Şom, Bolqondin topolmasman.

Bu elning o‘g‘lonlari

Mashhur “Mehnat ahli” qöşiğining ijrosiga havaslanib
Assalomu alaykum, bu elning öğlonlari,
Alpomiş, Manguberdi, Göröğli sultonlari.
Jonajon öz xalqining suyngan Asqar toği,
Elkasi yer körmagan ne mardi maydonlari.
Poyi qadamlaringiz yetgan yer qutluğ asli,
Ota-onalarining dardiga darmonlari.
Dili dillaringizga payvand qorasoçlarning
Bu dunyoda bormikin biron-bir armonlari.
Gar ixtiyor etsangiz böstonga aylangusi
Bu diyorning daşt-dala, çöllari, yobonlari.
Sizlar ulus tayançi, quvonç, körk, iftihori,
Sarhad, qal’alarini qöriqlar posbonlari.
Toki Sizlar bor ekan xatar neligin bilmas
Mustaqil bu ölkaning mustahkam qörğonlari.
Sha’ni-shavkatingizga olqov bitiş bilan band
Bahmal kentining önlab Töra Sulaymonlari.

Özi bir mamlakat mamlakatda siz

Hindistonning otaşin farzandi Javaharlal
NERU hamga Xalqaro Nilufar mukofoti
sohibasi, Özbekiston xalq şoirasi
ZULFIYAXONIMGA

Oy ham çiqmas emiş, tong otmas emiş,
Oftob ham nurini taratmas emiş,
Gulzorlar köngilni yayratmas emiş
Sizday şoirasi yöq vatanlarda.
Qizlari oy misol tölmas emişlar,
Vafo neligini bilmas emişlar.
Sadoqatga sajda qilmas emişlar
Sizday şoirasiz oşiyonlarda.
Qadr topmas emiş Oliya zoti,
Bibi Maryam zoti, Huriya zoti,
Momo Havo zoti, Indira zoti
Sizday şoirasi yöq vatanlarda.
Yigitlar tonarmiş öz onasidan,
Kelinçaklar borliq tamannosidan.
Oşiqlar ma’şuqa-parvonasidan
Sizday şoirasi yöq oşiyonlarda.

Şe’riyat ilohiy sanalmas emiş,
Buyuk siymolar tan olinmas emiş,
Çarx ham me’yorida aylanmas emiş
Sizday şoirasi yöq vatanlarda.
Tölib oqmas emiş daryolar, soylar,
Boğda taralmasmiş muattar böylar.
Baxtin topolmasmiş ne mohirröylar
Sizday shoirasi yöq makonlarda.
Bölganlari bilan hadsiz bisoti,
Sandiq-sandiq tillo, uyurlab oti,
Qaşşoq sanalarmiş ma’naviyati
Sizday şoirasi yöq vatanlarda.
Özi bir mamlakat Mamlakatda Siz,
Taxt-tojdin ustivor qanoatda Siz,
Birda Şams burjida himoyatdasiz,
Birda Oy, Çölponsiz bu oşyonlarda.
Sizga topinurlar, ixlos qilurlar,
Hamnafas bölmoqni havas qilurlar,
Ettinçi falakka qiyos qilurlar
Minglab muxlisingiz biz tomonlarda

Gul bir yon, ç aman bir yon

Singlim Kommunaga


Çaman içinda bir gul, gul bir yon, çaman bir yon.
Sarvi, sanobarmidir? -Soç bir yon, suman bir yon.
Sahar, subhi sodiqda muşk bir yon, muşgon bir yon.
Tun pardasin tortsa gar oy bir yon, osmon bir yon.
Ösgan boğiga olqov, östirgan boğboniga,
Xavfu xatardan saqlay kelgan soyboniga,
Andalib qönar, zoğlar qönolmas böstoniga.
Maqtoviga men bir yon, borliq suxandon bir yon.
Hakim zot bor yerda dard bir yon, darmon bir yon.
Yoring jafokaş bölsa uy bir yon, zindon bir yon.
Ikki jon bir bölmasa - şam bir yon, şamdon bir yon.
Ayri bölsa yöllari tuğ bir yon, tuğyon bir yon.
Qöriqçisi bölardim boğimda unar bölsa,
Kuzim kelmay bahorim qayta boşlanar bölsa,
Solnomaçisi bölay magar u Qamar bölsa,
Qasam içib aytaman: namak bir yon, non bir yon.
Qumri, sa’va oşiyon aylar bir gulafşon bu.


Bir kokili Sir bölsa, ul biri Zarafşon bu.
Ilohiy sanamlardan bir zuryod, bir nişon bu.
Kerak bölsa magar jon, jon bir yon, jahon bir yon.
Bu olamda Oy tanho, muborak Quyoş tanho,
Böy qizlarning içida bir şu egma qoş tanho.
Uningek heç kim menga bölmasa sirdoş tanho,
Göröğli sulton bir yon,
Töra Sulaymon bir yon.

Bu şe'r erta köklam şamoli tebratgan olis va kimsasiz daştning kökşin çeçaklari şovullaşiday sehrli va qadimiy edi. Bu şe'r Koşğariy bobo zamonlaridan, bepoyon va yuksak Tagritoğ tomonlaridan kelganday edi. Bu satrlarni ilk eşitganimda ularni XX asrning şoiri yozgani mutlaqo xayolimga ham kelmagan, bu köhna qöşiqni soqolini şamol qöqitgan qari, ammo közlari tiyrak baxşi töqigan bölsa kerak deb öylagan edim.

Şe'ri xalq qöşiğiga aylangan şoirning umri uzun böladi. Uning umri özbekman degan millat dunyoda yaşagani qadar yetadi. Aslida mana şu xalq qöşiğiga aylangan şe'rlar tufayli özbekning umri ham dunyo turgunça va qora çodirda eng sönggi yulduz sönişi qadar davom etadi.

Taniqli adabiyotşunos olim Qozoqboy Yöldoşning kitob uçun maxsus yozilgan "Ikkinçi umr manzaralari" maqolasi Töra Sulaymondek betakror şoirning ijod olamini teran va samimiy oçib berganini alohida ta'kidlab ötiş lozim. Olim mazkur maqolada töğri qayd etganidek, Töra Sulaymon -bugungi odam hayoti va olam hodisayu holatlarini keçaning nazari bilan körib, şuurga tez yetib borib, unda mustahkam örnaşadigan azaliy usulda ifodalay olgani bilan ertangi kunga yovuq turadigan ijodkor. Zero, şoir ijodining yitmas qadimiy qadriyatlardan suvlangan tomirlari öta çuqur ketgan. Töra Sulaymon asarlarida keçaning bağrida dunyoga kelgan bugun ertangi kunni nazorat qiladi. Şu sabab, ularda millatning uzilmas umr zanjiri, yitmas ezgu qadriyatlari aks etadi".





Çi i böladi. Biri – ba k" deb atalguvç i ötganidan söng ladigan yozuvçilik umri. Mana, taniqli şoir Töra Sulaymonning ikkinçi umri boşlanganiga ham salkam ön yil bölib qoldi. Yanagi yili şoir tuğilganiga sakson yil töladi. Qölingizdagi kitob ana şu sanaga munosib tuhfa böladi.

Bu kitob adibning ijodiy qiyofasini töla körsatişi bilan diqqatga loyiq.

Unga suyukli şoirimizning yuksak badiiyatli şe'rlari, nasrda bitgan ayrim asarlari, esselari, yodlovlari, dostonlaridan olingan parçalar, ilmiy maqolalaridan namunalar kiritilgan. Xullas, kitob bilan tanişgan öqirman Töra Sulaymon ijodiy qamrovidan yaxşigina xabardor bölişi tayin.

Töra Sulaymon el nazaridagi şoir edi. Uning bitganlari hayotligidayoq köp bor bosilgan, kuylangan, ular haqda yozilgan. Uning çop qilinmay qolib ketgan asarlari judayam köp emas. Töra aka öz bitiklariga aslo beparvo emasdi. U juda uzoq yillar oldin yozilgan va bosilib çiqqan asarlarini ham qayta-qayta közdan keçirib, lozim örinlarini tahrir qilardi. Uşbu "Saylanma"ga kirgan şe'rlarning köpi şoirning qayta "çiğiriği"dan ötgan bitiklar ekani bilan e'tiborlidir.

Badiiy asar ijodkor şaxsiyatining mevasi ekani sababli ijodkor qança öziga xos bölsa, uning yozganlari ham şunça betakror böladi. Töra Sulaymon tamomila öziga xos şaxs edi va bu qaytarilmas şaxsiyat uning bitganlarida yaqqol közga taşlanadi. Şoir ijodining boş belgisi uning töliğiça xalq oğzaki ijodi namunalari ta'sirida ekanidadir. Uning öyi, tuyğulari, hayratu hayajonlari hamda ularning ifodasi xalqona. Şoirning qayğusi, quvonçi, hatto yumorida ham xalqçillik yaqqol körinib turadi.

Özi-ku bizda folklordan ta'sirlanmagan ijodkor kamdan kam. Lekin oğzaki ijodning ta'siri butun yozganlarida böy körsatib turadigan Töra Sulaymonday adib adabiyotimizda boşqa yöq. Bu holning muayyan asoslari bor. Avvalo, Töra Sulaymon folklor asarlari yaratilişi hali davom etayotgan davrda va şunday muhitda dunyoga kelib ulğaydi. Bundan taşqari, uning tabiatida baxşilik unsurlari bor edi: u davralarni yoqtirmasdi, lekin ularsiz turolmasdi. Çunki davra köpniki, köpdan esa deyarli hamişa qandaydir hikmat topiş mumkin. Universitetda öqib yurganida ham kursdoşlari jahon adabiyoti namunalariga ruju qöyib, şov-şuvli asarlar izlaganlarida, u hyeç kimning topşiriğisiz öz holiça qişloqma-qişloq yurib, odamlar oğzidan daftar-daftar folklor namunalarini yozib olar va turli gazeta-jurnallarda çiqarişga urinib yotar edi. Şuningdek, oğzaki ijod namunalarini qayta-qayta öqib, zavqlanardi.

Töğri, Töra aka ham köpçilik ijodkorlar qatori mumtoz va zamonaviy adabiyotimizdan, şuningdek, rus va jahon adabiyoti namunalaridan tuzukkina xabardor edi. Bunday xabardorliksiz arzirli narsa yoza olmagan bölardi. Bu fikrimizni "Mehrob", "Armon", "Andişa" singari esselari ham tasdiqlaydi. Lekin uning bitganlarida asosan xalq oğzaki ijodining ta'siri ustuvorligi ham haqiqat. Oğzaki ijod unga şunçaki manba, material emas, balki mohiyat, ijodkor sifatidagi mavjudlikning ölçovi edi. Töra Sulaymon kabi oğzaki ijodga xos jihatlarni öz asarlarida bu qadar yorqin namoyon qila oladigan boşqa yozuvçi bungaça bölmagani singari bundan keyin ham çiqmasa kerak.

Ovloq toğ qişloğida tuğilib, murğak yoşida kimsasiz çölga kelib qolgan bolaning maşhur adib bölib yetişişiga nima turtki böldi? Uning ijodi qanday öziga xosliklarga ega, degan savollar öqirmanlarni qiziqtirişi tabiiy. Dunyoning buyuk adiblaridan biri Ernest Hemingueyda bunday hazilomuz gap bor: "**Yozuvçi böliş uçun iste'dod bilan baxtsiz bolalik kifoya qiladi** ". Şu ma'noda

Töra Sulaymon yozuvçilikka har jihatdan munosib, hyeç mini yöq kişi. Gözal Baxmal toğlari qöynidagi Aldaşmon qişloğida tuğilgan bölajak şoirning armonlarga töla bolaligi sovetlar tuzumining avji qatağon davriga töğri keldi. Otasini yot unsur sifatida qamatişib, uylaridagi körpa-töşakkaça inqilobiy hukumatga ötkazişdi. Quloqning bolalarini esa har yöl bilan turtkilab, kamsitişdi. Şu sabab, asli xayolparast va ta'sirçan yoş Töra siniq va öyçil bölib ösdi. Şoirning barça yozganlarida ana şu siniqlik, köngli yarimlik nuqsi sezilib turadi. Şe'rlarining birida: **"Otamning alamli pok siynasida U şalib, u şalmay qolgan armonman"**, deb yozganida aççiq iztiroblarga töla bolaligini közda tutgan. 1939 yili otasi qamoqdan çiqqaç, Töralar oilasi Mirzaçölning "Malik" xöjaligiga köçib keldi.

Şu tariqa toğda dunyoga kelgan bola dunyoni çölda taniy boşladi. Oilaning boşiga tuşgan şörişlar yoş Törani erta ulğaytirdi. Unda özgalarni anglaş, birovning dardini his qiliş sifatlari tengdoşlariga qaraganda oldinroq şakllandi. Uni şe'riyatga oşno qilgan tiynatidagi ayni şu sifatlardir, balki. Çunki u olamga, odamlarga, dunyoning şevalariga şunçaki bir tomoşabin sifatida qaray olmasdi. U dunyoni içidan ötkazardi. Töra köp öqirdi, butun-butun dostonlarni yod bilardi. Bolaligidanoq nimalarnidir aytgisi kelardi, boşqalarga ta'sir etmagan narsadan hayajonga tuşib, terga botardi. Hyeç kimga bildirmay, tuyğularini qoğozga tuşirardi. Lekin uzoq vaqt yozganini birovga körsatmay yurdi. Birinçi şe'ri e'lon qilinganida u yigirma olti yoşda edi. Öşa vaqtdagi şe'rlaridan birida u özini umid bilan yölga çiqqan karvonga öxşatadi:

Men ham umid bilan safarga çiqib,
Uzoq manzillarga köz tikkan jonman.
Birda Sirday toşib, birda tutoqib,
Katta yölga çiqqan
Kiçik karvonman.

Şe'r -köngil mulki. Olamni şoirona idrok etolmaydigan, uning boşqalarga noma'lum jihatlarini köra olmaydigan kişi şoir bölolmaydi. Öqib şoir bölinmaydi. Şoirlik – qismat. Şoir bölmaslikni eplay olmaganlar qismati. Şoir hamişa nimadandir norozi, nimadandir hayajonda. Olamni boridan gözalroq, odamlarni hozirgisidan komilroq köriş istagi şoirni doim bezovta qiladi. Şu bois u tinimsiz tölğanadi, izlanadi:

Suvlar ham tinidi sunbula kelib,
Tinib-tinçimadi bu könglim, hayhot.
Na bahor, na yozdan, na tökin kuzdan
Hyeçam qoniqmadi bu könglim, hayhot!

Şoir bir umr özini izlab, özini tekşirib, özini kaşf qilmoqqa intilib yaşaydi. Töra Sulaymon - izlanişlarning uzoq yölini malollanmay bosib ötgan ijodkor. U har ne topsa özidan topişi mumkinligini bilganidan, qalbini töxtovsiz taftiş qiladi. Izlagani taşqarida emas, öz yuragida ekanini tuyadi. Öz yuragini

anglamagan odam özgani tuşunolmasligi, özgani tuşunolmagan kimsa Haq bilan sirlaşolmasligiga işonadi. Haq bilan sirlaşişning eng işonçli yöli unga beğaraz muhabbatdir, uni adoqsiz sevişdir. Töra Sulaymon şe'riyati - işq haqidagi bitiklar. U muhabbat tufayli qalam tutdi, muhabbatni kuyga soldi va bir umr sevgi iztiroblarini kuyladi:

Men seni suydim, Qoraköz,
Suydim, suydirolmadim.
Işqingda kuydim, Qoraköz,
Kuydim, kuydirolmadim.

Şoir hamişa dard bilan yaşaydi. Bejiz: "**Dardsiz yaşamoqlik – dardmandlik asli**", demagan. Olamda qança asl şoir bor - hammasi dardmand. Ular gözallikning, ezgulikning dardi bilan oğrigan bemorlar. Barça çinakam asarlar ğamning mevalari ölaroq dunyoga kelgan. Bilamizki, Odamning loyini qorişga suv bölsin deb yoğdirilgan qirq kunlik yomğirning öttiz töqqiz kuni ğam, bir kuni şodlik yomğiri edi. Navoiy hazratlari: "**Köngilda ğam yöqliği özi ğamdur, Alam yöqliği asru alamdur**", deganlarida barça ijodkorlarning könglidagini ifoda qilganlar. Şundan bölsa kerak, Töra Sulaymon ijodida alamangiz şe'rlar köp. Şunday şe'rlari öquvçilar qalbini töliqroq egallab, xotiralarida hamişalikka qolgan: "**Izlay-izlay horib böldim, sensiz yol ğiz ğarib böldim, Endi bosgan izlaringni tört tomondan topolmasman**".
Yöqotganlarining topilmasligini, ketganlarining qaytmasligini bilgan kişining adoqsiz armonlari quyidagiça ifodalanadi:

Giyoh bilan qoplanmiş köhna qabr boşlari,
Maysadagi şudringlar – kimlarning közyoşlari?
Bu yerda yotar otam ham uzangidoşlari,
Bahor, ketma, mening boğimdan.

Adolatning toptalib, haq joyida qaror topmaganini körgandagi köngil holatlari ham ğamli misralarda ifoda etiladi:

Xeşlarimning bemavrid közlarida yoş körsam,
Bir mard bilan nopokning yölini tutaş körsam,
Qaysi bir begunohni keng yölda adaş körsam,
Bir betayin kimsaning oyoğida boş körsam...
Könglimda armon yotar terskaydagi qor misol.

Şoir qismat oldidagi öz ojizligidan iztirob çekmoqda bölgan kişi ruhiyati tovlanişlarini anduh bilan tasvirlaydi: "**Bu maskan qopqasizdir, bu qörğon xoqonsizdir, Boriş boru kelişyöq, bu göşa omonsizdir**".

Töra Sulaymon şe'riyatida ruhiyatning ta'sirçan manzarasi bilan birga zalvorli ijtimoiy yuk, salmoqli insonparvarlik vazifasi ham bor. Şu bois şe'rga köngil rozigina emas, balki odamning kimligini aniqlaydigan mezon, ma'naviyatini tayin etadigan ölçov sifatida yondaşadi: "**Ölan bilmas er asta ayniy boşlar, Qaydan bilsin ölanni bağri toşlar**".

Töra Sulaymon şe'riyati ta'sirli hissiy timsollar vositasida ifodalangan yombi va zalvorli fikrlardan tuğilgan. Payğambarimizning: "**Sözda sehr bor, şe'rda hikmat**", degan hadislaridagi ikki jihat ham şoir bitiklarida namoyon böladi. Ruhiyatning tuşuntiriş muşkul bölgan qatlamlarini badiiy tadqiq etiş, hissiyotdagi eng murakkab jarayonlarni bor çigalliklari ila tasvirlaş bilan birga Töra Sulaymon ğoyat miqyosli, qamrovli fikrlarni, gözal badiiy topildiqlarni sodda yösinda, çigallaştirmay, murakkablaştirmay körsata oladi. Köpinça, şe'riyatdagi soddalik jönlikka olib boradi. Töra aka ijodida esa, soddalik teranlikka xizmat qilgan. Şoirning elaro maşhur bölib ketgan şe'ri – "Tebratar" uşbu fikrimizning isboti:

Şamol şamolni tebratar.
Şamol bulutni tebratar.
Bulut yomğirni tebratar.
Yomğir maysani tebratar.
Maysa biyani tebratar.
Biya qimizni tebratar.
Qimiz yigitni tebratar.
Yigit suluvni tebratar.
Suluv beşikni tebratar.
Beşik bolani tebratar.
Bola dunyoni tebratar.

Şoir çigal taşbehlar, boloxonador öxşatişlar, zamzamali obrazlar tasvirini bermaydi. Qadimiy dunyo tartibotining eng muhim böğinlari börtiq manzarasini soddagina misralar bağriga joylay oladi. Çinakam şoirlik tomçida ummonni, qatim nurda quyoşni, atak-çeçak bir niholda butun boşli örmonni köra oliş demakdir. Yöq! Köra oliş yetarli emas, balki şe'rxonga ham körsata biliş lozimdir. Körsatganda ham şunçaki emas, öquvçining hissiyotini qözğaydigan, tuyğularini bezovta qiladigan, sezimlariga yuqadigan yösinda tuydirişdir:

Taqa tuyoqni asragay,
Tuyoq tulporni asragay,
Tulpor Temurni asragay,
Temur Turonni asragay,
Turon Qur'onni asragay,
Qur'on imonni asragay,
Imon insonni asragay,
Inson olamni asragay,
Olamni Özi asragay.

Şoirona nazar sabab jöngina taqadan boşlangan gap olamni asraş bilan tugadi. Narsa-hodisalar örtasidagi sababiy boğlanişlarni, umumdunyo aloqadorligini bu qadar gözal va özbekona idrok eta bilmoq hamda sodda yösinda ta'sirçan ifoda qilmoq uçun Töra Sulaymon iste'dodi kerak.

Asl ijod buzilgan muvozanatdir. Dunyodagi birorta şoir ruhiy muvozanatdan çiqmay turib birorta tuzukroq şe'r yozolmaydi. Muvozanatdan,

ya’ni risoladagi odamlarda böladigan ruhiy holatdan çiqiş har bir ijodkorda özgaça keçadi. Lekin deyarli barça asl ijodkorlarning ham qalbi yalanğoç, himoyasiz. Yuz bergan hodisaki bor, unga ta’sir körsatmay qolmaydi. Bir haqiqat ayon: ijodkor bir umr öz bolaligini tasvirlaş bilan band böladi. Qişloqda nari borsa, ön yetti yoşigaça yaşagan adiblar bir umr şu qişloği haqida yozişadi. Negaki, ijodiy holat qay bir darajada bolalikka qaytişdir. Çunki bola bölmay xayolparast böliş, xayolparast bölmay ijodkor böliş mumkin emas.

Adiblar har doim ham şoir yoki yozuvçi emaslar. Ular faqat özlaridan keçib, özlarini unutib ijod qilayotganlarida, ilhomning yulduzli onlaridagina adiblardir. Qolgan vaqtlarda barça qatori odamlar. Şuning uçun ham Töra Sulaymonning: “**Telbanamo edim yo şlikda Telbalikning hali aksi bor** ” misralarini ilhomiy holatning suvrati deyiş mumkin. Öziga şaxsan daxldor bölmagan narsadan kuçli ta’sirlaniş, qattiq xursand böliş yoki qayğuriş, şu holatini qoğozga köçirmaslikning ilojini topolmaslik rözğoriy mezonlar bilan ölçanganda telbalikning özginasi. Lekin şoir maişiy ölçovlar bilan emas, ilhomiy miqyoslar bilan iş köradi, ma’naviy tarozilar bilan tortadi.

Köpçilik ijodkorlar devonafe’l bölgani, darveşvaş yaşagani, axloqiy-huquqiy qoliplarga köpda rioya qilavermagani uçun ham bizning nazarimizda ança erkin hayot keçiradiganga öxşab körinadi.

Çuqurroq öylab qaralsa, uning erki qulning erkidan çeklanganroq bölsa borki, ortiq emas. Nega? Çunki adib ijodidan erkin bölolmaydi. Aslan ijod erkinligi tuşunçasi ijodkorning erkinligini emas, aynan ijodning erkinligini anglatadi. Şoir öz tuyğulariga, hissiyotiga xöjayin bölolmaydi. Hissiyotini boşqara olgan odam ijodkor emas. U ilhomiga ham biylik qilolmaydi. Bil’aks, şoir öz ilhomining qulidir. Unda faqat junbuşga kelgan tuyğuni, quyilib kelayotgan fikrni gözal şaklda ifodalay oliş majburiyati bor, xolos. Ilhomni zörlab bölmaydi. Şu sabab talantli şoirlar istalgan vaqtda emas, köngillari tusaganda şe’r öqiydilar. Bundayroq şoirlarga iltimos qilinsa, bas, öqiyveradi. Negaki, birinçi toifadagilar çinakam iste’dod sohiblari va ular ilhom bilan iş köradilar, keyingilar esa ijroçilar, ularga tomoşabin kerak.

Körinadiki, ilhomni zörlab bölmaydi. Zörlansa, çala nasl beradi. Şu sabab, Töra Sulaymon butun tuyğuga, butun yurakka ega bölişga intiladi: “**Menga butun köngil kerak, kun kerak, Menga tuta ş yulduz töla tun kerak. Men yortilab muhabbatni olmayman, Men yorti d öst xonasida qolmayman**”.

U çala suymaydi, çala yaşamaydi, çala dovlaşmaydi, çala yovlaşmaydi, çala döstlaşmaydi. Özining butun söziga, yirik tuyğusiga ega bölganidan ğururlanadi. Tuyğular öziniki bölgani bois “yuqumli”. Birovdan tuyğu olib, birovning ovozi bilan kuylab, birovning sözi-la tasvirlab, e’tirof qozonib bölmaydi. Şoirning: “**Özga sozni çalgulik qilma** ”, deya iltijo etişi şundan. Butun ijodiy umri mobaynida öz sozini çalişga urinib keldi. Quyidagi misralar har uç kişidan biri şoir bölgan biznikiday yurtda ham boşqa birovnikiga öxşamasligi bilan e’tibor tortadi:

Bu olamda Oy tanho, muborak Quyoş tanho,
Böy qizlarning içida bir şu egma qoş tanho,

Uningdek hyeç kim menga bölmasa sirdoş tanho,
Göröğli sulton bir yon, Töra Sulaymon bir yon.

Töra Sulaymon qöllagan: “**Osmon örtasinda nozlanadir oy** ” taşbihi faqat uning öziga xos. Bu tasvir öqirmanni beixtiyor şoir tasavvuriga mos ruhiy holatga tuşiradi. Sözning qudrati şunda! Töra Sulaymon söz jilosini teran his etadi. Sözning köpçilik xotirasidan kötarilgan xalqona ohangdor şakllarini, unut bölayozgan qadimiy ma’nolarini topadi. Şoir söz izlamaydi, balki holatning eng muvofiq ifodasini qidirib topadi. Uning tuyğulari xalqona, ifoda ham şunga mos. Holatga yaraşiqli söz topa biliş asl şoirga nasib böladigan saodat. “Tölğanoy” dostonida: **“Uni çeçan demakim ta’biri yara şmasa…** ” deydi şoir va özi imkon boriça yaraşiqli ta’bir topişga, ta’sirli tasvir qilişga urinadi.

Sozim

Sening tilaklaring bölmas mustajob,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Nolam Biru Borga etsa ne ajab,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Sen ayttanday, ermak, kasb-kor emas bu,
Köplar eta bilmas orzu-havas bu.
Bobomlardan qolgan yolğiz meros bu,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
To ona tabiat menga yor ekan,
Har dami ğanimat, betakror ekan,
Diyonat bor ekan, yaltoq xor ekan,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Birning taqdiri -bu tuman taqdiri,
Sarbonga boğlidir karvon taqdiri,
Sozçining qölida kamon taqdiri,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Tong -tal’at belgisi. Tun esa Tanglik.
Oy - oqşom tangrisi, quyoş - Mangulik.
Badnomga bölmasa Yerda yorgulik,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Xohi rozi bölgil, xohi norizo,
Xohi Motam tutib, xohi oç aza,
Dovruqlari bölib elga ovoza,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim.
Senga qolgan kunim, kunmas -qabohat.
Koşki sendan kutsam imdod, inoyat!
Meni qöllay olur, qilur himoyat,
Uzilmas torlarim, sinmas sozlarim!

Har qanday ijodkorning asl qiyofasini uning tili belgilaydi. Şu ma’noda Töra Sulaymon tamomila öziga xos şoirdir. Töğri, u ham boşqalar foydalanib yurgan sözlarni işlatadi. Lekin bu sözlarni u kitobdan olmaydi. Kitobdan

olingan söz obrazga yopişmaydi. Badiiy matnda ham yotligi bilinib turadi.

Töra Sulaymon sözga ayriça bir erkinlik bilan yondaşib, har qanday asov sözni ham yuvvoş torttira oladi. Sözni ruhga böysundira biladi. Özi sözning emas, ruhning stixiyasi yetovida yuradi. Oddiygina sözlardan faqat Töra Sulaymonga xos tasvir uslubini vujudga keltira oladi: "**Kökda suzgan bulut momiqdan ham oq, Koşkiydi boşlansa yomğir yoğaloq**". Bulutni paxtaga öxşatiş kimlardan qolmagan, lekin momiqqa öxşatilişi uslubni özgartirgan. Şe'rning ohangi Mirtemir bitiklarini eslatadi. Ammo ustoz bulutni "pağa", "oq" deya sifatlardi. Çölda, paxta orasida ulğaygan Töra Sulaymon esa uning momiq ekanini köra bildi. "Soğiniş" şe'rida: "**Yaylovlarda maysa qimtir q öy-qözi**" tarzidagi tasvirda "qimtir" bağoyat örnida işlatilgan, bu sözdagi ma'no nozikligini hammayam ilğayvermaydi. Hodisalarni "töraçasi"ga köriş namunasi: "**Toğlar töşi yori şdi, demak tong otayotir** ". Quyoş haqida bir söz demay, uni körsatiş mumkin ekan. Ğoyat mavhum, moddiylaştirib bölmaydigan holatni aniq tasvirlay oliş mahorati namoyon bölgan tasvir: "**Kelinlarning labida B ösaning isi qoldi** ".

Şoir şe'rlarida hissiyotini izohlab ötirmaydi. Tuyğuni şunday ifodalaydiki, uning qatida ruhiy holatni tuğdirgan sabab ham yaşiringan böladi: "**Könglimda armon yotar terskaydagi qor misol** ", deydi bir şe'rida. Quyoşga ters tarafdagi qor uzoq vaqt erimay, kirlanib yotganiday, lirik qahramon könglidagi armon erib ketadigan emas, öşandoq bölsa, unga şoirning munosabati tayin, albatta, va u öz-özidan şe'rxonga ham yuqadi.

Töra Sulaymon badiiy tajribalar ötkazişga öç emasdi. U uzoq zamonlar oldin amalda bölgan tajribalardan foydalanardi. Eski şaklni yangiça mazmun ifodalaşga xizmat qildira bilardi. Özbeki sözning totini tuygan va tuydirişga uringan şoir edi u.

Şoir sözni yuzada turmaydigan birlamçi ma'nolarida qöllaşni xuş körardi: "böy qiz" deydi böyga yetgan qiz haqida; "bözalam" deydi biz "çimzor" deb yurgan tuşunçani; "uzangidoş" deb ataydi xöb özbeki qilib, xöb ta'sirçan qilib, döst, tengdoş, jöra, safdoş singari bir qança sözlarni isrof qilib ham töliq ifodalab bölmaydigan yana bir tuşunçani. Tilimizda hamişa bölgan, endilikda ayrim keksalargina qöllayotgan huşyor ma'nosidagi "soq" sözi joyida işlatilgani bois ifodaviylikni neça barobar oşirib yuboradi.

Töra Sulaymon sözga avaylab, qizğanib yondaşadi. Ularning bemavrid yöqolişiga yöl qöymaslikka urinadi. "Tölğanoy" dostonida "törlab sadrga tuşganda" degan jumla bor. Toğlik qipçoqlarda hayotdan yoş ketgan yigitning kiyimlarini oti ustiga taşlab, ot bilan sadr tuşiş odati bölgan. Yuqoridagi jumlada ana şu holat ifodasini topgan. Beş yaşar otning yilqiçilar tilida "tölan" ekanini hamma ham bilavermaydi. Diqqatga sazovor tomoni şundaki, bu xildagi sözlarni u şunçaki ekzotika uçun, etnografik dalil sifatida emas, tabiiy tasvir vositasi tarzida juda örinli işlatgan.

Töra Sulaymonning sözga alohida bir ehtiyotkorlik bilan yondaşuvi, ehtiromi, fikrlarini hikmat yösinida ifodalaganida yaqqol körinadi. Asarlari sinçiklab körib çiqilsa, u bir qator yangi maqolu hikmatlar yaratganiga guvoh

böliş mumkin. Jumladan: “**Sutsiz sigir suza ğon kelar**”, “**Toqatliga toğlar egar boşini**”, “**Quvib ölgan- mangulik, Qo çib ölgan- kömgulik**”, “**Közguga dam ursang, yuzingni k örolmaysan**”, “**Böz öğrisidan qörqma, söz öğrisidan qörq**”, “**Oysiz osmon ğarib**”, “**Oftobsiz olam ğarib**”, “**Çölponsiz subhi sodiq ğarib**”, “**Sarbonsiz karvon ğarib**” va h.k.

Töra Sulaymon -bugungi odam hayoti va olam hodisayu holatlarini keçaning nazari bilan körib, şuurga tez yetib borib, unda mustahkam örnaşadigan azaliy usulda ifodalay olgani bilan ertangi kunga yovuq turadigan ijodkor. Zero, şoir ijodining yitmas qadimiy qadriyatlardan suvlangan tomirlari ö ta çuqur ketgan. Töra Sulaymon asarlarida keçaning bağrida dunyoga kelgan bugun ertangi kunni nazorat qiladi. Şu sabab, ularda millatning uzilmas umr zanjiri, yitmas ezgu qadriyatlari aks etadi.

Azaliy qadriyat va tuyğularni ilğab, ularga ehtiromla qaray oladigan şaxs öz buguniga ega bölib, ertasini yarata biladi. Keçaga tayangan bugun sobitdir. Şu sobitlik quçoğida tuğilgan kelajak esa buyukdir. Töra Sulaymon bitgan asarlar millat ahlida ana şunday azaliy va turğun qadriyatlar şakllantirişga qaratilgani bilan eskirmaslik xususiyatiga ega.

Bu ötkinçi dunyoda birgina ruh mangudir. Ruhning tozaligi kişiga quvvat baxş etadi. Demak, qaysiki millatning ruhiyati munavvar, tuyğulari toza bölsa, u qudratlidir. Töra Sulaymon asarlarida turğun, eskirmaydigan, qimmatsizlanmaydigan ma’naviy qadriyatlar samimiy kuylanadi. Şoir mahorati yozganlarining tabiiyligida namoyon böladi. Uning bitiklari yurakdan çiqqani, sun’iylik aralaşmagani, samimiy bölgani uçun ham yuraklarga oson yetib boradi. Töra Sulaymon asarlari farzandlarga bobolar nazarini eslatib turgani bilan qimmatlidir. Xalq oğzaki ijodidagi kabi erişilişi ğoyat qiyin bölgan sodda mukammalligi bois şoir yaratiqlari köngillardan çuqur joy oladi va ularni yaşartiradi.

Millatdoşlarimiz orasida keng tarqalgan köplab qöşiqlar, öz öquvçilariga ega bölgan neça önlab kitoblar muallifi, özbek badiiy tafakkurining kamyob siymolaridan biri Töra Sulaymon ijodi namunalari el-ulusi bilan uzoq yillar birga bölgusidir. Binobarin, şoirning ikkinçi umri manzillari mangulik bilan böylaşişini umid qiliş mumkin.

Bibliografik q öllanma keng kitobxonlar ommasiga m öljallangan.

Adabiyotlar r öyxati özbek tilida

1. Сулоймон,Тўра. Жахоннома:[достонлар,эртаклар, ҳикиялар, очерклар]/ Тўра Сулоймон.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 1996. – 224 б.
2. Сулоймон,Тўра. Сайҳон:[шеърлар, достонлар]/Тўра Сулоймон.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 2003. – 224 б.
3. Маҳмудов, Равшанбек. Тўра Сулаймон:[рисола]/Тўра Сулоймон.- Тошкент: Ғафур Ғулом, 2008. – 64 б.
4. Сайхун саболари:[шеърий антология]/Ҳ.Ортиқбоева, Н.Қосимова- Тошкент:Тафаккук, 2020. – 316 б.
5. Сирдарё мавжлари:[насрий антология]/Ҳ.Ортиқбоева, Н.Қосимова - Тошкент:Тафаккук, 2020. – 312 б.

Vaqtli matbuotdagi maqollalar

1.Pardayev, M. Ijodi elda doston ...: [Özbekiston xalq şoiri Töra Sulaymon tavallud topgan kun]/ M.Pardayev // Yangi Sirdaryo.- 2022.- № 5.- 14 fev.
2. Emin, R. Töra Sulaymon hayotiga bir nazar : [Minbar suymagan şoir]/ R.Emin // Yangi Sirdaryo.- 2022.- № 25.- 8 iyul.
3. Nomozov, S. Ilk şe’rlar töplami: [Iltijo, öxşar, Umr ötmoqdadir daryo misoli]/ S.Nomozov // Yangi Sirdaryo.- 2022.- № 13.- 1aprel.
4. Mahmudov, R. Muqaddas qöşiq kuyçisi: [Özbekiston xalq şoiri Töra Sulaymon tavalludining 90 yilligiga] / R. Mahmudov // Ma’naviy olam.- 2024.- 1 fevral.- 9b.
5. Аҳмад, Муҳаммадали. Ҳақиқий қўшиқ қанотли қуш:[Тўра Сулаймон таваллудининг 90 йиллигига] / Муҳаммадали Аҳмад // Yangi Sirdaryo.- 2024.- № 6.- 12 феврал.- 8 б.
6.Маҳмудов , Р. Жаннатмакон юрт куйчиси :[Тўра Сулаймон таваллудининг 90 йиллигига] / Р. Маҳмудов // Yangi Sirdaryo.- 2024.- № 5.- 5- феврал.- 8 б.

Manzil: Oqoltin tuman “Yangi davr”MFY Arçazor köçasi 1-uy 6-son Madaniyat markazi binosida 2-qavat.